

**MILLIY ARXEOLOGIYA MARKAZI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/02.30.12.2019.Tar.45.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MILLIY ARXEOLOGIYA MARKAZI**

**PARDAYEV MUXRIDDIN XUSNIDDINOVICH**

**SO‘X HAVZASIDA ANTROPOGEN LANDSHAFTNING TASHKIL  
TOPISHI VA URBANIZATSIYA JARAYONLARI**

**07.00.06 – Arxeologiya  
(tarix fanlari)**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
AVTOREFERATI**

**Toshkent– 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation**

**Pardayev Muxriddin Xusniddinovich**

So‘x havzasida antropogen landshaftning tashkil topishi va urbanizatsiya jarayonlari..... 5

**Пардаев Мухриддин Хусниддинович**

Формирование антропогенного ландшафта и процессы урбанизации в бассейне Соха ..... 23

**Pardaev Mukhriddin**

Formation of the anthropogenic landscape and urbanization processes in the Sokh basin..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 49

**MILLIY ARXELOGIYA MARKAZI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/02.30.12.2019.Tar.45.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MILLIY ARXELOGIYA MARKAZI**

**PARDAYEV MUXRIDDIN XUSNIDDINOVICH**

**SO‘X HAVZASIDA ANTROPOGEN LANDSHAFTNING TASHKIL  
TOPISHI VA URBANIZATSIYA JARAYONLARI**

**07.00.06 – Arxeologiya  
(tarix fanlari)**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
AVTOREFERATI**

**Toshkent– 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Tar1501 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Milliy arxeologiya markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.archaeology.uz](http://www.archaeology.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Anarbaev Abdulxamidjon**

Tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Suleymanov Rustam Xamidovich**

Tarix fanlari doktori, professor

**Shaydullaev Alisher Shapulatovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Milliy arxeologiya markazi huzuridagi DSc.02/02.30.12.2019.Tar.45.01.raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «26» iyul soat 10:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 81-uy. Tel.: (99871) 262-64-62, e-mail: [uzarchae@academy.uz](mailto:uzarchae@academy.uz))

Dissertatsiya bilan Milliy arxeologiya markazi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (34 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 81-uy. Tel.: (99871) 262-64-62, e-mail: [uzarchae@academy.uz](mailto:uzarchae@academy.uz))

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «8» iyul kuni tarqatildi.

(2024-yil «8» iyul dagi 4 raqamli reyestr bayonnomasi).



*[Handwritten signature]*

**F. A. Maqsudov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d. (DSc), professor

*[Handwritten signature]*

**D. X. Murodova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.n.

**G. B. Boboyorov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, t.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Kishilik tarixining ilk sivilizatsiyalari bo‘lmish Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Hindiston va Xitoy daryolar negizidan shakllangani uchun ular “daryobo‘yi sivilizatsiyalari” deya ataladi. Ilk dehqonchilikning boshlanishida ham aynan yirik daryolar asosiy rol o‘ynagan. Jahon arxeologiyasida daryo havzalarining insonlar tomonidan o‘zlashtirilishi, antropogen landshaftning shakllanishi va rivojlanish dinamikasi muammolarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega yo‘nalishlardan biridir. Yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida zamonaviy landshaft-arxeologik tadqiqot uslublari, qadimgi inson va tabiat munosabatlari, qadimgi kishilar jamoalari o‘rnashuvining landshaft-ekologik xususiyatlari va ularning turli ekologik mintaqalarni o‘zlashtirishlari hamda migratsiya masalalarini o‘rganishda keng foydalanilmoqda.

Markaziy Osiyo tarixi borasida izlanishlar olib borayotgan nufuzli ilmiy markazlar tomonidan o‘tkazilayotgan tadqiqotlarda, madaniy landshaftning shakllanishi va rivojlanish dinamikasi, hamda urbanizatsiya muammolarini tadqiq qilish asosiy ilmiy yo‘nalishlardan hisoblanadi. Bunda asosiy urg‘u Geografik Axborot Tizimi (GAT<sup>1</sup>) asosidagi landshaft-arxeologik tadqiqotlarga qaratilmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar inson va atrof-muhitning o‘zaro ta‘sirini tushunish, tarixiy jarayonlarni qayta qurish hamda arxeologik tadqiqotlarni samarali rejalashtirish imkoniyatini yaratadi.

So‘x havzasida so‘nggi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida turli davrlarga oid ko‘plab yodgorliklar aniqlanib, ro‘yxatga olingan. Biroq, o‘tkazilgan qidiruv-kuzatuv ishlari davomida aniqlangan ko‘pgina yodgorlik va topilmajoylarning ma‘lumotlari umumlashtirilmagan, shuningdek, antropogen landshaftning rivojlanish dinamikasi tizimli ravishda o‘rganilmagan. Ushbu yo‘nalishda zamonaviy tadqiqot usullarini qo‘llangan holda keng qamrovli izlanishlar olib borish va shu orqali hududning o‘zlashtirilishi bosqichlari, urbanizatsiya jarayonlari bilan bog‘liq masalalarni yoritish, tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Bundan tashqari, So‘x havzasi eng qadimgi insonlar istiqomat qilgan hududlardan biri bo‘lganligi sababli, havzada ilmiy tadqiqotlar olib borish O‘zbekiston tarixini o‘rganishda muhim xulosalar beradi.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi 6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 6-iyuldagi 165-sonli “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 16-yanvardagi F-5181-sonli «Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoyishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining- 2019-yil 21-sentabrdagi 792-sonli “Arxeologik

---

<sup>1</sup> Geografik axborot tizimlari (GIS) – asosiy vazifalari tabiat va jamiyat hodisalarining geofazoviy ma‘lumotlarini maxsus vositalar yordamida to‘plash, saqlash, boshqarish, tahlil qilish, modellashtirish va tasvirlashdan iborat.

tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” gi qarorlarida belgilangan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi<sup>2</sup>.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** So‘x havzasidagi ilk tadqiqotlar XIX asrning oxirgi choragidan boshlanib, tarixchi-sharqshunos olim N. I. Veselovskiy, geolog V. N. Veber<sup>3</sup> va A. D. Petrovlar<sup>4</sup> tomonidan olib boriladi. Bu davrda yig‘ilgan ma‘lumotlar o‘zining tavsifiy xarakterda ekanligi bilan izohlanadi. XX asrning 30-yillaridan Farg‘ona vodiysida gidrotexnik inshootlarning qurilishi munosabati bilan boshlangan arxeologik tadqiqot va nazorat ishlarida B. A. Latinin<sup>5</sup>, M. Y. Masson<sup>6</sup>, M. Y. Voronets<sup>7</sup>, Y. G‘. G‘ulomov, T. G. Oboldueva, V. D. Jukovlar<sup>8</sup> ishtirok etishgan bo‘lsa, 40–50-yillarda A. N. Bernshtam<sup>9</sup>, B. A. Litvinskiy<sup>10</sup>, Y. A. Zadneprovskiy<sup>11</sup>, S. S. Sorokin<sup>12</sup>, shuningdek, tosh davri mutaxassislari A. P. Okladnikov<sup>13</sup>, V. A. Ranov<sup>14</sup>, P. T. Konoplyalar<sup>15</sup> keng ko‘lamda tadqiqot ishlari olib borishgan.

---

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги ПФ-6097-сон «Илм-фанни 2030-йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида»ги Фармони [электрон ресурс] <https://lex.uz/docs/5073447>; 2022 йил 06 июлдаги ПҚ-165-сонли «2022–2026-йилларда Ўзбекистон Республикасининг инновацион ривожланиш стратегиясини тасдиqlаш тўғрисида»ги Фармони [электрон ресурс] <https://lex.uz/docs/6102462>; 2018 йил 16 январдаги Ф-5181-сонли «Моддий маданий ва археология мероси объектларини мухофаза қилиш ва улардан фойдаланишни такомиллаштириш тўғрисида»ги Фармойиши [электрон ресурс] <https://lex.uz/docs/3506332>; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 21 сентябрдаги 792-сонли «Археологик тадқиқотларни тубдан такомиллаштириш тўғрисида»ги Қарори [электрон ресурс] <https://lex.uz/docs/4524476>.

<sup>3</sup> Вебер В. Н. Полезные ископаемые Туркестана. – М.: 1913. – 208 с.

<sup>4</sup> Петров А. Развалины Муг-тепе около селения Сары-курган // Протоколы заседаний ТКЛА 1913-1914 годов. – Ташкент, 1914. – С. 24-25.

<sup>5</sup> Латынин Б. А. Вопросы истории ирригации древней Ферганы // КСИИМК, No.64. – 1956, – С. 15-26.

<sup>6</sup> Массон М. Е. Экспедиция археологического надзора на строительстве БФК // КСИИМК. – No.4. – 1940. – С. 52-54.

<sup>7</sup> Воронец М. Е. Археологические исследования Узбекистанского комитета по изучению памятников материальной культуры в 1939 году // ВДИ, No.1. – 1940. – С. 207-209.

<sup>8</sup> Жуков В. Д., Оболдува Т. Г., Гулямов Я. Г. Отчет о работе третьего отряда археологической экспедиции на строительстве Большого Ферганского канала имени И. В. Сталина // ТИИА., Том. IV. – Ташкент, 1951. – 126 с.

<sup>9</sup> Бернштам А. Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА. – М. – Л., 1952. – № 26. – С. 346 с.

<sup>10</sup> Литвинский Б. А. Изучение памятников эпохи бронзы и раннего железа в Кайраккумах в 1956 г. Тр. АН Таджикской ССР, т. ХСІ. – Душанбе, 1959. – С. 39–51.

<sup>11</sup> Заднепровский Ю. А. Древняя Фергана // Автореферат. Дисс.канд.ист.наук. – Л.: ЛГУ, 1954. – 18 с.

<sup>12</sup> Сорокин С. С. Культура древних скотоводов в предгорьях Ферганы. Автореф. канд. дис. – Л., 1958. – 20 с.

<sup>13</sup> Okladnikov A. P., Leonov N. I. Первые находки каменного века в Фергане // КСИА. – М. – 1961. – №. 86. – С. 36-42.

<sup>14</sup> Ранов В. А., Несмеянов С. А., Конопля П. Т. Палеолитические местонахождения в Южной Фергане // Древняя и раннесредневековая культура Киргизстана. – Фрунзе: Илим, 1967. – С. 3–29.

<sup>15</sup> Конопля П. Т. Следы людей каменного века на территории Южной Киргизии // Известия АН КиргССР. серия общественных наук. Т. I, Вып. 1. – Фрунзе, 1959. – С. 41-47.

XX asrning 60-yillaridan Farg‘ona vodiysi arxeologiyasini o‘rganishda N. G. Gorbunova<sup>16</sup>, T. G. Oboldueva, A. Y. Shigin<sup>17</sup>, Y. D. Baruzdin<sup>18</sup>, G. A. Brikinalar<sup>19</sup> faol ishtirok etishgan. Shuningdek, tosh davrini o‘rganishda O‘. I. Islomov<sup>20</sup>, M. R. Qosimovlarning<sup>21</sup> ishlarini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

Mustaqillik davrida So‘x havzasi yodgorliklari mahalliy tadqiqotchilar A. A. Anarbaev<sup>22</sup>, B. X. Matboboev<sup>23</sup>, G. P. Ivanov<sup>24</sup>, B. Q. Sayfullaev<sup>25</sup>, M. Xo‘janazarov<sup>26</sup>, F. A. Maqsudov<sup>27</sup>, M. M. Saidovlar<sup>28</sup> bilan birgalikda, A. I. Krivoshapkin<sup>29</sup>, K. A. Kolobova, S. V. Shnayder<sup>30</sup> kabi xorijlik olimlar tomonidan zamonaviy arxeologik metodlar asosida o‘rganilgan.

Biroq, yuqorida keltirilgan tadqiqotlar, asosan, ma’lum bir mikrovohada alohida olingan yodgorliklarda olib borilgan bo‘lib, So‘x havzasining qadimgi davr tarixini to‘liq qamrab olmagan. Natijada, So‘x havzasida antropogen landshaftning shakllanishi va kengayish dinamikasi tizimli o‘rganilmagan. Arxeologik tadqiqotlarning aksariyati qidiruv-kuzatuv xususiyatida bo‘lib, keng ko‘lamli kompleks tadqiqotlar asosan tosh davri yodgorliklarda o‘tkazilgan, xolos.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, 2019-yilda Axsikent arxeologik kompleks ekspeditsiyasi tarkibida So‘x arxeologik guruhi tashkil qilindi. Keyingi 4 yil davomida So‘x havzasi hududida qidiruv-kuzatuv ishlari talabgor tomonidan amalga oshirildi. Shu bilan birga, 2022-yilda Tapaqo‘rg‘on yodgorligida arxeologik qazishma ishlari olib borilib, Qo‘qon shahri tarixiga oid yangi materiallar qo‘lga kiritildi.

---

<sup>16</sup> Горбунова Н. Г. Итоги исследования археологических памятников Ферганской области (к истории культуры Ферганы) // СА, No.3. – 1979. – С. 16-34.

<sup>17</sup> Шигин А. Е. Сары-Курган - крепость в Фергане // СА, No.1, 1984, – С. 192-198.

<sup>18</sup> Баруздин Ю. Д., Брыкина Г. А. Археологические памятники Баткена и Ляйляка (Юго-западная Киргизия). – Фрунзе – 1962. – 127 с.

<sup>19</sup> Брыкина Г. А. Юго-Западная Фергана в первой половине I тысячелетия нашей эры. – М.:Наука. 1982. – 206 с.

<sup>20</sup> Исламов У. И., Тимофеев В. И. Культура каменного века Центральной Ферганы. – Ташкент: Фан, 1986. – 304 с.

<sup>21</sup> Касымов М. Р. Новые исследования по палеолиту Ферганской долины в 1964 г. // ИМКУ. Вып.7. – Ташкент, 1966. – С. 7-13.

<sup>22</sup> Анарбаев А. Ахсикет – столица древней Ферганы. – Ташкент: Tafakkur, 2013. – 535 с; Ўша муаллиф. Фарғонанинг антик ва ўрта асрлар даври шаҳар маданияти // Маъруза шаклидаги докторлик диссертацияси. Тошкент. – 2017.

<sup>23</sup> Матбобоев Б. Х. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти (V–VIII асрлар археологик манбаларининг тарихий таҳлили асосида). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Самарқанд, 2009. – 569 с.

<sup>24</sup> Иванов Г. П. Археологические культуры Ферганы (периодизация и синхронизация). Автореферат дисс... канд.ист.наук. – Самарканд, 1999. – 25 с.

<sup>25</sup> Сайфуллаев Б. Қ. Ибтидоий миграция йўллари (Камчиқ ва Тахта-Қорача доволлари мисолида) Археология Узбекистана. – 2016. № 1 (12). – Б. 3-14.

<sup>26</sup> Хужаназаров М. Изображение пахоты из Янгиариксыя // ОНУ. – Ташкент, 1989. – № 3. – С. 50-51.

<sup>27</sup> Мақсудов Ф. А. К проблеме сложения производящего хозяйства в Ферганской долине // История и археология Турана, № 3. 2016. – С. 45-58.

<sup>28</sup> Анарбаев А. А., Саидов М. М. Отчет о работах по составлению свода археологических памятников Ферганской области. – Самарканд, 2014. – 218 с.

<sup>29</sup> Кривошапкин А. И. и др. Возобновление исследования пещеры Сельунгур (Кыргызстан) // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. – 2015. – Т. 21. – С. 94-98.

<sup>30</sup> Шнайдер С. В. и др. Результаты археологических раскопок памятника Обишир-5 в 2016 году // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. – 2016. – Т. 22. – С. 194-198.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot ishi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi Ipak yo'li arxeologiyasi bo'limining 2021–2025-yillardagi “Buyuk ipak yo'lidagi O'zbekistonning qadimgi shaharlari va ularni Markaziy Osiyo tarixida tutgan o'rni” ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** So'x havzasida antropogen landshaftning shakllanish va rivojlanish jarayonlarini yoritib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

havzaning arxeologik yodgorliklari joylashuvi, turi, xususiyatlari va davriy mansubligi haqidagi batafsil ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi geoma'lumotlar bazasini tuzish asosida ushbu mintaqaning inson jamoalari tomonidan o'zlashtirilishi hamda ular faoliyati rivojlanishining tarixiy dinamikasini ochib berish;

landshaft-arxeologik tadqiqotlar asosida havzaning tosh va ilk metall davri jamoalari o'rnavuhv ekologiyasiga oydinlik kiritish;

havzada dehqonchilik madaniyatining shakllanishi, yodgorliklarining suv havzalari bo'ylab joylashuvi xususiyatlari hamda ularning tasnifini ishlab chiqish;

arxeologik kartografiya va geografik axborotni tahlil qilish usullari asosida mazkur hududda inson jamoalari faoliyati qanday o'zgarganligini va turli tarixiy davrlarda ularning faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** So'x havzasining eng qadimgi davrdan inson jamoalari tomonidan o'zlashtirilishi tarixi.

**Tadqiqotning predmeti** So'x havzasida madaniy landshaftning tashkil topishi va urbanizatsiya jarayonlari.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada arxeologik manbalarni tizimlashtirish, qiyosiy tahlil, hududda antropogen landshaft tashkil topishiga oid ma'lumotlarni umumlashtirish hamda zamonaviy arxeologik ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

O'rta paleolit davrida antropogen landshaftlar So'x havzasining janubiy qismida shakllanganligi, mezolit-neolit davrlarida quyi oqimigacha kengayganligi, ilk metall davrida tog'oldi tegrasida saqlanib qolib, antik va ilk o'rta asrlarda havzaning barcha qismlariga yoyilganligi, rivojlangan o'rta asrlarga kelib esa shaharsozlik va dehqonchilik madaniyati hududi shimoliy-g'arbiy va janubiy qismlariga ko'chganligi, shuningdek, havzaning inson jamoalari tomonidan o'zlashtirilishi uzluksiz kechganligi isbotlangan;

So'x havzasi tosh va ilk metall davri jamoalarining dengiz sathidan 1000 m yuqorida, oqarsuv manbalariga 300 metrgacha masofada, quyoshga tik qaragan 90–270 daraja azimutda, 10–20 daraja qiyalikda hamda sel yo'llaridan yuqoridagi ekologik burchaklardagina o'rnavhganligi isbotlangan;

So'x havzasining antik va ilk o'rta asrlar davri dehqonchilik madaniyatiga mansub jamoalarning Bachqir, Qatron-Gijon, Qo'qonsoy, Nursuq, Sariqo'rg'on, Zohidon va Yuqori So'x kabi yettita irrigatsion mikrovohalarda istiqomat qilganligi hamda ulardan shahar xarobasi, qishloq xarobasi, yakka turdagi turar-joy, qal'a-

qo'rg'on va qabriston-mozorqo'rg'on kabi besh turdagi arxeologik yodgorliklar majmualari saqlanib qolganligi aniqlangan;

Eramizdan avvalgi II–I asrlar va eramizning I–VI asrlarda So'x havzasining o'rta oqimida intensiv sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi, So'x daryosi suvining kuchli tarmoqlanishi, yerosti suvlarining ko'tarilishi va tuproqlarning sho'rlanishi natijasida havzaning quyi oqimidagi manzilgohlar VII asrda tashlab ketilganligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

So'x havzasining eng qadimgi davrdan so'nggi o'rta asrlargacha bo'lgan arxeologik yodgorliklari ma'lumotlari jamlanib, raqamli arxeologik xarita yaratilgan;

O'zbekiston hududida arxeologik qidiruv-kuzatuv ishlari olib borishda arxeologik prognoz modellari hamda masofaviy tahlil vositalarini joriy etish metodikasi ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** So'x havzasida olib borilgan dala qidiruv ishlari davomida arxeologiyada tan olingan usullar va nazariy yondashuvlarning qo'llanilganligi, qo'lga kiritilgan yangi materiallarni mavjud ilmiy qarashlar bilan qiyosiy tahlil qilinganligi va shu asosda fundamental ilmiy xulosa qilinib, taklif va tavsiyalar berilganligi bilan isbotlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:**

Tadqiqotning *ilmiy* ahamiyati So'x daryosi havzasining inson jamoalari tomonidan o'zlashtirilishi, antropogen landshaftning shakllanish va rivojlanish bosqichlari hamda urbanizatsiya jarayonlari tarixini tiklanganligi bilan belgilanadi;

*amaliy* ahamiyati esa So'x havzasi arxeologik yodgorliklarining raqamli arxeologik xaritasi yaratilganligi bilan asoslanadi. Shuningdek, tadqiqotda qo'llanilgan arxeologik prognoz modelidan izlanishlar olib borilishi lozim bo'lgan hududning, arxeologik yodgorliklar mavjudligi istiqboli yuqori bo'lgan nuqtalarini belgilab olishda va madaniy meros obyektlarni tabiiy va antropologik xavflardan himoya qilishda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** "So'x havzasida antropogen landshaft shakllanishi va urbanizatsiya jarayonlari" mavzusidagi dissertatsiya bo'yicha qo'lga kiritilgan ilmiy natijalar asosida:

O'rta paleolit davrida antropogen landshaftlar So'x havzasining janubiy qismida shakllanganligi, mezolit-neolit davrlarida quyi oqimigacha kengayganligi, ilk metall davrida tog'oldi tegrasida saqlanib qolib, antik va ilk o'rta asrlarda havzaning barcha qismlariga yoyilganligi, rivojlangan o'rta asrlarga kelib esa shaharsozlik va dehqonchilik madaniyati hududi shimoliy-g'arbiy va janubiy qismlariga ko'chganligi, shuningdek, havzaning inson jamoalari tomonidan o'zlashtirilishi uzluksiz kechganligi to'g'risidagi ma'lumotlardan "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Ko'hna manzillar" va "Ibtido" ko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston tarixi" telekanali davlat unitar korxonasi 2023-yil 11-dekabrda 06-28-1862-sonli ma'lumotnomasi). Natijalar O'zbekistonning tarixi va madaniy merosini targ'ibotiga xizmat qilgan.

So‘x havzasi tosh va ilk metall davri jamoalarining dengiz sathidan 1000 m yuqorida, oqarsuv manbalariga 300 metrgacha masofada, quyoshga tik qaragan 90–270 daraja azimutda, 10–20 daraja qiyalikda hamda sel yo‘llaridan yuqoridagi ekologik burchaklardagina o‘rnashganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Ko‘hna manzillar” va “Ibtido” ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston tarixi” telekanali davlat unitar korxonasining 2023-yil 11-dekabrda 06-28-1862-sonli ma‘lumotnomasi). Natijalar O‘zbekistonning tarixi va madaniy merosini targ‘ibotiga xizmat qilgan.

So‘x havzasining antik va ilk o‘rta asrlar davri dehqonchilik madaniyatiga mansub jamoalarning Bachqir, Qatron-Gijon, Qo‘qonsoy, Nursuq, Sariqo‘rg‘on, Zohidon va Yuqori So‘x kabi yettita irrigatsion mikrovohalarda istiqomat qilganligi hamda ulardan shahar xarobasi, qishloq xarobasi, yakka turdagi turar-joy, qal‘a-qo‘rg‘on va qabriston-mozorqo‘rg‘on kabi besh turdagi arxeologik yodgorliklar majmualari saqlanib qolganligi haqidagi ma‘lumotlar Madaniy meros agentligi Farg‘ona viloyati Madaniy meros boshqarmasi tomonidan yangi madaniy meroslarni xatlovdan o‘tkazish, ularni pasportlashtirish va hujjatlashtirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniy meros agentligining 2024-yil 06-sentyabrdagi 04-09/379-sonli ma‘lumotnomasi).

Eramizdan avvalgi II–I asrlar va eramizning I–VI asrlarida So‘x havzasining o‘rta oqimida intensiv sug‘orma dehqonchilikning rivojlanishi, So‘x daryosi suvining kuchli tarmoqlanishi, yerosti suvlarining ko‘tarilishi va tuproqlarning sho‘rlanishi natijasida havzaning quyi oqimidagi manzilgohlar VII asrda tashlab ketilganligi haqidagi ma‘lumotlar “Qo‘qon” davlat-muzey qo‘riqxonasida ekskursiya matnlarini boyitishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniy meros agentligining 2024-yil 06-sentyabrdagi 04-09/379-sonli ma‘lumotnomasi). Shuningdek, Tepaqo‘rg‘on arxeologik yodgorligidan topilgan yuzdan ortiq moddiy ashyolar Ushbu topilmalar muzey fondini boyitishga hamda tashrif buyuruvchilarda Qo‘qon mikrovohasining moddiy madaniyati tarixi haqidagi bilimlarini oshirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya natijalari 4 ta ilmiy anjuman va seminarlarda, shu jumladan, 3 ta xalqaro, 2 Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta, xorijiy jurnalda 4 ta maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar hamda qisqartmalar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 165 bet, unga 74 ta rasmdan iborat ilustrativ albom ilova qilingan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**So‘x havzasi tabiiy landshaftning rivojlanishi va arxeologik o‘rganilish tarixi**” deb nomlangan birinchi bobi uchta paragrafdan iborat. Birinchi paragraf “**Tabiiy landshaftning rivojlanishi**” deb nomlanib unda, So‘x havzasining paleogeografiyasi, tabiiy-geografik tuzilishi, iqlim sharoitlari, ichki suvlari va tuproq xususiyatlari batafsil keltirilgan. Jumladan, So‘x havzasi relyefi baland tog‘li, yassi tog‘lik, adir, adirorti va shimoliy allyuvial tekislik mintaqalaridan iborat ekanligi, har bir mintaqaning geologik-morfologik xususiyatlari ochib berilgan.

Mintaqaning paleogeografik tarixi, dastlab, O‘rtayer dengizi termokserofit subtropik qattiq bargli o‘simliklari, so‘ngra, Hindikush-Himolay tipidagi tog‘ subtropik keng ignabargli o‘rmonlar hukmron bo‘lgan uzoq davrlardan keyin, Tibet tipidagi baland tog‘li, siyrak o‘simlik qoplamidan iborat landshaftlargacha bo‘lgan uzoq yo‘lni bosib o‘tgan. Ushbu o‘zgarishlarda O‘rta Osiyo tog‘laridagi tektonik harakatlar asosiy rol o‘ynagan.

Tosh qurol yasash uchun xomashyo salohiyati, tuproq holati, hududning vegetatsiyasi va topografiyasi shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lganligi uchun havzaning geologik tarixi va tuzilishiga keng o‘rin berilgan. Shuningdek, ma’lumotlar tahlili asosida, hududda hozirgi iqlimiy-ekologik sharoitlarning shakllanishi bilan bog‘lik paleogeografik izlanishlar tahlili keltirilgan.

Oloy va Turkiston tizmalarining nisbiy balandligi yuqori bo‘lganligi sababli, uning shimoliy yonbag‘rida ko‘plab muzliklarning hosil bo‘lishi barobarida, ushbu tog‘lardan suv oluvchi daryolarning sersuv bo‘lishiga ham sabab bo‘lgan. Biroq, ushbu tizmalarning muzlik-qor suvlaridan to‘yinadigan daryolar o‘ziga xos oqim rejimiga ega<sup>31</sup>. Jumladan, So‘x daryosi yillik oqimining 60 foizi iyul–sentabr oylarida oqib o‘tadi, mart–aprel oylarida esa minimal oqim kuzatilib, bu havzaning quyi qismida, ayni vegetatsiya davridagi qurg‘oqchiliklarga sabab bo‘ladi.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi “**Arxeologik o‘rganilish tarixi**” deb nomlanib, unda So‘x havzasida XIX asrning oxirgi choragidan hozirgi kunlarimizga qadar olib borilgan arxeologik qazishmalar va qidiruv-kuzatuv ishlari natijalari bayon etilgan.

Farg‘ona vodiysida 1939-yildan yirik irrigatsiya inshootlari qurilishi munosabati bilan, Katta Farg‘ona kanali qurilishi yo‘nalishida, M. Y. Masson boshchiligidagi arxeologik qidiruv-nazorat ishlari olib borilgan<sup>32</sup>. Shuningdek, mazkur yilda O‘zbekiston moddiy madaniyati yodgorliklarini o‘rganish komiteti Respublikada 6 ta arxeologik ekspeditsiya, jumladan, M. Y. Voronets rahbarligidagi Farg‘ona ekspeditsiyasini tashkil qiladi<sup>33</sup>. Bundan tashqari, A. N. Bernshtam boshchiligidagi Pomir-Oloy (1946–1948), Pomir-Farg‘ona (1950–1952) hamda Y. A. Zadneprovskiy boshchiligidagi 1954–1958-yillarda o‘tkazilgan

<sup>31</sup> Шульц В. Л., Машарипов Р. Ўрта Осиё гидрографияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – Б. 200.

<sup>32</sup> Массон М. Е. Экспедиция археологического надзора на строительстве БФК // КСИИМК. – No.4. – 1940. – С. 52-54.

<sup>33</sup> Воронец М. Е. Археологические исследования Узбекистанского комитета по изучению памятников материальной культуры в 1939 году // ВДИ. – No.1. – 1940. – С. 207-209.

ekspeditsiyalar Janubiy Farg‘ona hududlarini ham qamrab olib, keng ko‘lamdagi tadqiqot ishlarini olib boradi<sup>34</sup>.

Farg‘ona vodiysi o‘troq dehqon va chorvadorlari madaniyatini o‘rganishda B. A. Litvinskiy, Y. D. Baruzdin, N. G. Gorbunova, S. S. Sorokin, G. A. Brikina, T. G. Oboldueva kabi tadqiqotchilarning xizmatlarini alohida ta’kidlash mumkin. Bundan tashqari hududning tosh davri yodgorliklarini o‘rganishda A. P. Okladnikov, V. A. Ranov, P. T. Konoplya, Y. G‘. G‘ulomov rahbarligidagi Farg‘ona arxeologiya otryadi, O‘. I. Islomov, M. R. Qosimov; mustaqillik davrida B. K. Sayfullaev; xorijiy tadqiqotchilar A. P. Derevyanko, A. I. Krivoshapkin, S. V. Shnayder kabi olimlarning xizmatlari katta.

Janubiy Farg‘onaning qadim va o‘rta asrlar madaniyatlari, dehqonchilik madaniyatlarining shakllanishi, urbanizatsiya jarayonlari va davrlashtirish muammolari A. A. Anarbaev, B. X. Matboboev, F. A. Maqsudov, G. P. Ivanov va M. M. Saidov kabi tadqiqotchilar asarlarida o‘z aksini topgan.

Arxeologik tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘rganilayotgan hududda garchi ko‘plab olimlar qazishma va qidiruv-kuzatuv ishlari olib borgan bo‘lsalarda, So‘x daryosi havzasida antropogen landshaftning shakllanishi va rivojlanishi bosqichlarini o‘rganish bo‘yicha maxsus tadqiqot olib borilmagan. Aniqlangan yodgorliklar koordinatalari aniq belgilanib, ularga oid ma’lumotlar yagona tizim holatida jamlanmagan. Tizimli qazishmalar o‘tkazilgan yodgorliklar soni ham ko‘p emas. Shuningdek, tosh davri jamoalarining hududga kirib kelishi, ularning migratsiyalari, analogiyalari bilan bog‘liq ba’zi bir savollar javobsiz qolgan. Aksariyat yodgorliklarda laboratoriya tahlillari, mutlaq davrlashtirish amallari o‘tkazilmagan. Irrigatsion rayonda o‘troq dehqonchilik va shahar madaniyatining rivojlanishi, antik va ilk o‘rta asrlar davri shahar va qishloqlarining paydo bo‘lishi, rivoji va yo‘qolishi dinamikasi va unga ta’sir qilgan omillar yoritilmagan. Bundan tashqari turli yillarda o‘tkazilgan qidiruv-kuzatuv ishlari davomida aniqlangan ko‘pgina yodgorlik va topilmajoylarning joylashuv o‘rni aniq belgilanib, ro‘yxatga olinmaganligi va ularga oid ma’lumotlar jamlanmaganligi bu boradagi ishlarni qayta ko‘rib chiqishni, arxeologik yodgorliklar ma’lumotlarini raqamli holatga o‘tkazishni taqozo etmoqda.

Birinchi bobning uchinchi paragrafi **“Tadqiqotlar metodikasi”** deb nomlanib, So‘x havzasida 2019–2023-yillarda olib borilgan landshaft-arxeologik tadqiqotlar metodikasi yoritilgan.

So‘x havzasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, dissertantning o‘rganilish hududida olib borgan qidiruv-kuzatuv ishlari va qazishmalardan olgan xulosalari, shuningdek, masofadan ilg‘ash (RS<sup>35</sup>) texnologiyalari orqali to‘plangan masofaviy tahlil natijalari asosida So‘x havzasi arxeologik yodgorliklarining geoma’lumotlari ombori tuzildi.

So‘x havzasi arxeologik yodgorliklarining geoma’lumotlari ombori asosida

---

<sup>34</sup> Бернштам А. Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА. – М. – Л., 1952. – № 26. – 346 с; Заднепровский Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. – М., 1962. – № 118. – 328 с.

<sup>35</sup> Masofadan ilg‘ash (Remote sensing) – avia va kosmik vositalar (sun’iy yo‘ldoshlar), shuningdek, yer yuzida o‘rnatilgan turli suratga olish uskunalari orqali Yer yuzasini kuzatish.

shahar va qishloq tipidagi manzilgohlar (81 ta), petrogliflar (3 ta), qal'a-qo'rg'onlar (4 ta), qabriston va mozorqo'rg'onlar (11 ta), sochma holatdagi topilmajoylar (9 ta) va g'or tipidagi yodgorliklar (4 ta) tasvirlangan raqamli arxeologik xarita yaratildi.

Qidiruv-kuzatuv ishlari CORONA sun'iy yo'ldosh tasvirlari<sup>36</sup> va turli mazmundagi xaritalar rastrlarini GAT dasturiy ilovalariga bog'lash amaliyotidan foydalangan holda olib borilishi, o'rganilish hududidagi hali ro'yxatga olinmagan bir qancha yodgorliklarning aniqlanishiga sabab bo'ldi<sup>37</sup>.

So'x havzasi antropogen landshaftining shakllanishi va rivojlanish dinamikasini tadqiq etishda, Geografik Axborot Tizimi (GIS) yordamida ma'lumotlar omborini yaratish (Excel Database), arxeologik yodgorliklarning zichligini hisoblash (Density Analysis), eng qulay yo'nalishlarni aniqlash (Cost Distance Analysis), hudud gidrologiyasi (Hydrology Analysis) va topografiyasini geo-tahlil qilish (Surface Analysis) kabi zamonaviy raqamli usullardan foydalanish ustuvorligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning II bobi "**So'x havzasi tosh va ilk metall davrida**" deb nomlanib, birinchi paragraf "**Tosh davri antropogen landshafti**" ga bag'ishlangan. Unda o'rganilish hududining tosh davri yodgorliklarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari va ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, ushbu davrda havzaning odamlar tomonidan o'zlashtirilishi borasidagi xulosalar keltirilgan.

Dastlab pleystotsen va golotsen davrlarining iqlim va morfologik xususiyatlari, hudud va mintaqa miqyosida turli tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilgan paleoiklimiy, palinologik, paleogeografik tahlillar<sup>38</sup> asosida olingan xulosalar yordamida ochib berilgan.

So'x havzasini insonlar tomonidan ilk o'zlashtirilishi so'nggi pleystotsen davri

---

<sup>36</sup> AQSh Mudofaa vazirligining 1960–1972-yillarda yer yuzasining katta qismini yuqori aniqlikdagi tasvirlarini o'z ichiga olgan xaritalari. Corona Atlas & Referencing System. – URL: <https://corona.cast.uark.edu>

<sup>37</sup> Пардаев М. Х. Сўх ҳавзаси археологик ландшафтига антропоген таъсир (масофадан зондлаш, дала кидирув-кузатув ишлари ва маҳаллий аҳолидан ахборот йиғиш усуллари орқали) // O'zbekiston arxeologiyasi. – №2, (2). – 2022. – С. 88-101; O'sha muallif. Сўх ҳавзасининг Тош даври археологияси // Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 9/S. – В. 144-153; O'sha muallif. Сўх ҳавзасидаги археологик кидирув-кузатув ишларида corona – сунъий йўлдош тасвирларидан фойдаланиш амалиёти. Марказий Осиё тарихи ва маданияти, 1(1). – 2023. – С.116–119. <https://inlibrary.uz/index.php/history-culture/article/view/17074>

<sup>38</sup> Kovaleva N. Paleoclimatic significance of a loess-paleosol sequences from Tian-Shan, Central Asia. Geophysical Research Abstracts 7, 2005; Welc F. et al. Paleoclimatological and geoarchaeological significance of the Holocene loess–soil successions of the Tien Shan foothills of Uzbekistan // Studia Quaternaria. – 2016. – Vol. 33. – Pp. 57-68; Сердюк Н. В. Палеорекострукция среды Ферганской долины позднего плейстоцена-раннего голоцена по данным ископаемой фауны // Пути эволюционной географии. Выпуск 2: Материалы II Всероссийской научной конференции, посвященной памяти профессора А. А. Величко (Москва, 22–25 ноября 2021 г.). – М.: Институт географии РАН, 2021. – С. 351-354; Osipova E. et al. Palaeoenvironmental conditions of the Palaeolithic–Neolithic transition in the Fergana Valley (Central Asia) – New data inferred from fossil molluscs in Obishir-V rockshelter (Kyrgyzstan) // Quaternary International. – 2021. – Vol. 605. – С. 287-299; Величко А. А., Кременецкий К. В., Маркова А. К., Ударцев В. П. Палеоэкология ашельской стоянки Сельунгур // Проблемы взаимосвязи природы и общества в каменном веке в Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1988. – С. 18-19; Шнайдер С. Сурунгур–новый памятник раннего голоцена в Ферганской долине // Stratum plus. Archaeology and Cultural Anthropology. – 2021. – №. 2. – С. 319-337; Пахомов М. М. Роль новейшей тектоники в формировании природной среды гор Средней Азии в кайнозое (на примере Памира) / Фундаментальные проблемы квартера: итоги изучения и основные направления дальнейших исследований. Материалы X Всероссийского совещания по изучению четвертичного периода. Москва 25–29 сентября 2017 г. – М.: ГЕОС, 2017. – С. 302.

yoki o'rta paleolitning so'nggi bosqichida ro'y beradi<sup>39</sup>. Garchi biroz qadimiyroq davrlarga oid topilmalar mavjudligi aytilsada<sup>40</sup>, biroq, ushbu topilmalarning sochma holatda ekanligi, topilmalar aniqlangan obyektning madaniy qatlamga va mutlaq davrlashtirish tahlillariga ega emasligi bu boradagi xulosalarni shubha ostiga qo'yadi.

Havzaning intensiv o'zlashtirilishi yuqori paleolit-mezolit davrlariga to'g'ri kelib, mezolit davri so'nggida So'x havzasining yuqori, tog' oldi mintaqalaridan, daryoning quyi tekislik qismlarigacha bo'lgan mintaqalar qadimgi inson jamoalari tomonidan o'zlashtirilgan edi.

II bobning 2-paragrafi "**Ishlab chiqaruvchi xo'jalikning vujudga kelishi**" deb nomlanib, unda ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllarining Farg'ona vodiysiga yoyilishi jarayonini adabiyotlar tahlili asosida ko'rib chiqilgan.

So'nggi tadqiqotlarga ko'ra, chorvachilik va dehqonchilik "hosildor yarimoy" hududida, deyarli bir vaqtda, kamida bundan 11 500 ming yil avval vujudga kelgan<sup>41</sup>. Shuningdek, genomik tadqiqotlar neolit inqilobining kengayishi, Janubiy-G'arbiy Osiyo aholisining Yevropa va Osiyoning boshqa hududlariga yoyilishi va mahalliy aholi bilan qo'shib ketganligini ko'rsatadi<sup>42</sup>.

Farg'ona vodiysida ishlab chiqaruvchi xo'jalikning vujudga kelishi, neolit madaniyati to'lqinining Yaqin va O'rta Sharqdan qo'shni hududlarga tarqalishi bilan bevosita bog'liq. Shuningdek, ushbu hodisa kuchli madaniy, sivilizatsiyaviy ta'sir va o'zaro aloqalar<sup>43</sup> natijasida ro'y bergan.

Yaqin va O'rta Sharqdan O'rta Osiyoga ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllarining tarqalishi to'lqini natijasida, eradan oldingi VI ming yillikdayoq Janubiy Farg'onaning tog' va tog'oldi mintaqalarida hayvonlarni xonakilashtirish amaliyoti kuzatiladi<sup>44</sup>.

O'rta Osiyo, Yevroosiyo dashtlari va janubiy sivilizatsiyalar o'rtasidagi mazkur qalin madaniy, sivilizatsiyaviy almashinuv muhiti bo'ylab nafaqat moddiy buyumlar, balki, madaniylashtirilgan ekinlar va xonakilashtirilgan hayvonlarning ham ushbu aloqa tarmoqlari bo'ylab biotik almashinuvi ro'y beradi. Ushbu aloqalar tufayli, eramizdan avvalgi III ming yillikda madaniy o'simliklar, Yaqin va O'rta Sharq hududidan Ichki Osiyo tog' koridori orqali, O'rta Osiyoning shimoliy va sharqiy qismlari va Shinjon hududlarigacha yetib boradi.

<sup>39</sup> Krivoshepa A. et al. Middle Paleolithic variability in Central Asia: lithic assemblage of Sel'Ungur cave // Quaternary International. – 2020. – Vol. 535. – P. 4.

<sup>40</sup> Конопля П. Т. Следы людей каменного века на территории Южной Киргизии // Известия АН КиргССР. серия общественных наук. – Фрунзе, 1959. – Т. I, Вып. 1. – С. 41–47.

<sup>41</sup> Zeder M. A. The origins of agriculture in the Near East // Current anthropology. – 2011. – Vol. 52. – №. S4. – P. 221.

<sup>42</sup> Omrak A. et al. Genomic evidence establishes Anatolia as the source of the European Neolithic gene pool // Current Biology. – 2016. – Т. 26. – №. 2. – Pp. 270-275.

<sup>43</sup> Boivin N. Proto-globalisation and biotic exchange in the Old World. Human Dispersal and Species Movement: From Prehistory to the Present. – 2017; – P. 349; IV.24. Harris D. R. Jeitun and the transition to agriculture in Central Asia // Archaeology International. – 1997. – Vol. 1. – P. 29; Spengler R. N., Willcox G. Archaeobotanical results from Sarazm, Tajikistan, an Early Bronze Age Settlement on the edge: Agriculture and exchange // Environmental Archaeology. – 2013. – Vol. 18. – №. 3. – P. 219.

<sup>44</sup> Taylor W. T. T. et al. Evidence for early dispersal of domestic sheep into Central Asia // Nature Human Behaviour. – 2021. – Vol. 5. – №. 9. – P. 1169; Nishiaki Y. et al. Neolithization during the 6th Millennium BCE in Western Central Asia: New Evidence from Kaynar Kamar Rockshelter, Hissar Mountains, Southeast Uzbekistan // Archaeological Research in Asia. – 2022. – Vol. 30. – P. 100352.

II bobning 3-paragrafi “**Ilk metall davri antropogen landshafti**” deb nomlanadi. Eneolit-bronza davrlaridagi qulay ekologik shart-sharoitlar sabab, O‘rta Osiyoning boshqa mintaqalarida bo‘lgani kabi Farg‘ona vodiysida ham antropogen landshaft maydonining keskin o‘shishi kuzatilib, insonlar egallagan ekologik nishalar chegarasi, quyi daryo vodiylaridan yuksak tog‘li mintaqalargacha bo‘lgan hududlargacha kengayadi.

Eramizdan avvalgi IV–II ming yilliklarda davrlarga kelib, baland tog‘lik mintaqalar chorvachilik yaylovlari sifatida o‘zlashtirilishi bilan<sup>45</sup>, insonlar hosil qilgan sun‘iy landshaftlar chegarasi, mazkur, quruq va sovuq iqlim sharoitlar hukm surgan mintaqalarga yetib boradi.

Havzaning tog‘ va tog‘oldi mintaqalarida joylashgan Surungur va Obishir-5 makonlarida olib borilgan kompleks arxeologik tadqiqotlar<sup>46</sup> natijasida, ushbu makonlarda hayot so‘nggi pleystotsen davridan uzluksiz holda davom etganligi ma‘lum bo‘ldi.

Surungur, Obishir-5 va Chegirtka makonlarida Chust madaniyatiga oid sopol majmualari topilishi hamda ushbu sopol buyumlariga qo‘shilgan organik qo‘shimchalarda yirik va mayda shohli qoramollarga tegishli biomarkerlar aniqlanganligi<sup>47</sup>, mintaqa chorvador va dehqon jamoalarining o‘zaro ta’sir hududi bo‘lganligini ko‘rsatdi.

Eramizdan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida Farg‘ona vodiysidagi daryo va soy havzalarining adirorti mikrovohalarida dehqonchilik yo‘lga qo‘yiladi<sup>48</sup>. Eramizdan avvalgi birinchi mingyillikda esa daryo va soylarning quyi qismlaridagi yerlar ham dehqonchilik maqsadida o‘zlashtirila boshlanadi<sup>49</sup>. Ushbu jarayon natijasida, So‘x daryosining quyi oqimida Qo‘qon mikrovohasi shakllanadi. O‘z navbatida, sug‘orma dehqonchilikning rivojlanishi mahalliy tuproq tarkibi va biotasiga keskin ta’sir ko‘rsatib, hudud iqlimining yumshashiga xizmat qilgan.

II bobning 4-paragrafi “**Tosh va ilk metall davri jamoalarining o‘rnashuv xususiyatlari**” deb nomlanib, GAT dasturlarining masofaviy tahlil instrumentlariga tayangan holda, So‘x havzasining tosh va metall davri arxeologik yodgorliklari mavjudligi ehtimoli yuqori bo‘lgan nuqtalarini ifodalovchi – arxeologik prognoz modeli (APM) xarita ishlanmasi va metodologiyasi keltirilgan. Tadqiqotning maqsadi – havzaning tosh va metall davri odamlari uchun qulay bo‘lgan o‘rnashuv xususiyatlarini ko‘rsatib berishdan iborat. Buning uchun havza va unga yondosh hududlarning shu davrga tegishli yodgorliklaridan olingan turkum ekologik ko‘rsatgichlari, o‘rnashuv hududlarini belgilashda asosiy mezon bo‘lib xizmat qildi.

---

<sup>45</sup> Schroeter N. et al. Biomolecular evidence of early human occupation of a high-altitude site in Western Central Asia during the Holocene // *Frontiers in Earth Science*. – 2020. – Vol. 8. – P. 20.

<sup>46</sup> Шнайдер С.В., и др. Сурунгур–новый памятник раннего голоцена в Ферганской долине // *Stratum plus. Archaeology and Cultural Anthropology*. – 2021. – № 2. – С. 319-337; Shnaider S. V. et al. New investigations of the Epipalaeolithic in western Central Asia: Obishir-5 // *Antiquity*. – 2017. – Vol. 91. – №. 360. – P. 3.

<sup>47</sup> Селин Д. В., Шнайдер С. В., Абдыканова А., Тейлор В., Кривошапкин А. И. Новые данные по Чустской культуре Памиро-Алая (Южный Кыргызстан) // *Вестник Томского государственного университета. История*. – 2023. – № 84. – С. 181.

<sup>48</sup> Анарбаев А. А. Древнеземледельческая культура Ферганы и динамика развития урбанизации // *История и археология Турана*. – Вып. 3. – Самарканд, 2017. – С. 101.

<sup>49</sup> O‘sha joyda ... – С. 91.

Tadqiqot tahlillari SRTM<sup>50</sup> (DEM<sup>51</sup>) ning GL1 Global 30m versiyali raqamli xaritalardan foydalangan holda, WGS84 EPSG:4326 koordinata tizimida olib borildi.

So‘x havzasi tosh va ilk metall davri jamoalarining dengiz sathidan 1000 m yuqorida, oqar suv manbasigacha 300 metrgacha masofada, quyoshga tik qaragan 90–270° daraja azimutda, 10–20° daraja qiyalikda, sel yo‘llaridan yuqoridagi ekologik muhitlarda o‘rnashganligi landshaft-arxeologik tadqiqotlar asosida isbotlandi.

So‘x havzasidagi Obishir va Oloy vodiysidagi Chegirtka yodgorliklari topilmalaridagi o‘zaro o‘xshashliklar va aloqalar mavjudligi borasidagi dalillarga<sup>52</sup> asoslanib, GAT dasturlaridagi “Eng qulay yo‘nalish” (Least-cost path) masofaviy tahlil instrumenti yordamida, yuqoridagi yodgorliklarni bog‘lovchi, qiyalik darajasi oz bo‘lgan tog‘ so‘qmoq yo‘li xaritasi yaratildi. Natijada tog‘ yo‘lining ehtimoliy yo‘nalishi, Qumbel va Olovuddin dovonlari orqali bo‘lganligi, golotsen davri jamoalari migratsiya yo‘nalishlari yuksak tog‘ balandliklarini ham kesib o‘tganligi aniqlangan.

Dissertatsiyaning III bobi “**So‘x havzasi qadim va o‘rta asrlar davrida**” deb nomlanib, to‘rt paragrafdan iborat. Birinchi paragraf “**Sug‘orma dehqonchilikning shakllanishi va rivojlanishi**” ga bag‘ishlanib, So‘x daryosi havzalarida dehqonchilik uchun o‘zlashtirilgan yerlarning kengayishi, sug‘orma dehqonchilik tizimi, daryo va kanallar, ular havzalarida qaror topgan arxeologik yodgorliklar hamda sug‘orma dehqonchilik natijasida yuzaga kelgan landshaftdagi o‘zgarishlar tahlil qilingan.

Farg‘ona vodiysidagi ko‘plab adirorti mikrovohalarining dehqonchilik maqsadida o‘zlashtirila boshlanishi, eramizdan avvalgi II ming yillik o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Ushbu davrda Qoradaryo, Kosonsoy, Oqbura, Marg‘ilonsoy, So‘xsoy va boshqa daryolar havzalari o‘zlashtiriladi<sup>53</sup>. So‘x daryosining quyi oqimidagi hududlar, Qo‘qon mikrovohasida sug‘orma dehqonchilikka o‘tilishi eramizdan avvalgi VIII asr oxiri – VII asr boshlarida ro‘y bergan<sup>54</sup>.

So‘x daryosi tog‘li hududdan tekislikka chiqish qismida, panjasimon tarqalib, klassik tipdagi deltani shakllantirgan. Aynan shu yerda daryo juda ko‘p soy va ariqlarga tarmoqlanib ketadi. Rishton, Kenagas, Nayman, Gijon, Qarton, Qo‘qonsoy, Zodiyon soy va ariqlari eng sersuv va qadimgi sug‘orish tizimlari hisoblanadi<sup>55</sup>.

<sup>50</sup> Yerning yuqori aniqlikdagi balandlik ma’lumotlarini saqlovchi raqamli relyef modeli <https://www.usgs.gov/centers/eros/science/usgs-eros-archive-digital-elevation-shuttle-radar-topography-mission-srtm-1>

<sup>51</sup> Digital elevation model (raqamli balandlik modeli).

<sup>52</sup> Шнайдер С. В. и др. Результаты археологической разведки в Алайской долине (Кыргызстан) в 2017 году // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. – 2017. – Т. 23. – С. 250-254.

<sup>53</sup> Анарбаев А. А. Древнеземледельческая культура Ферганы и динамика развития урбанизации // История и археология Турана. – Вып. 3. – Самарканд, 2017. – С. 101.

<sup>54</sup> Анарбаев А. А., Сайфуллаев Б. К., Саидов М. М. Археологические исследования в г. Коканде и его окрестностях. – Самарканд: Изд-во Институт археологии им. Я. Гулямова АН РУз. – 2014. – С. 20.

<sup>55</sup> Рассудова Р. Я. Культурные объекты Ферганы как источник по истории орошаемого земледелия // Советская этнография. – 1985. – №. 4. – С. 96-104.

So‘x havzasi sug‘orish tarmoqlarining nisbiy nishablik darajasi ozligi (1,7–0,8%) sababli, ushbu sug‘orish tarmoqlaridan dehqonchilik maqsadida foydalanishda muammolar bo‘lmagan. Bu esa dehqonchilik maydonlarining doimiy kengayib borishiga imkon yaratgan.

Biroq, doimiy qor va muzliklardan to‘yinadigan So‘x daryosidan, bahor oylari, ayni ekinlarning vegetatsiya davrida, soniyasiga 8–10 m<sup>3</sup> suv o‘tishi<sup>56</sup> tufayli, ayniqsa daryoning quyi oqimlarida suv tanqisligi kuzatilgan. Daryoning juda ko‘plab ariq tarmoqlariga bo‘linib ketishi vaziyatni yanada og‘irlashtirgan. Kuchli tarmoqlanish sabab daryo suvi nafaqat Sirdaryoga quyilmagan, balki, madaniy landshaftlar zonasidan tashqariga chiqmagan.

So‘xsoyning har ikkala qirg‘og‘ida turli davrlarga, tiplarga oid yodgorliklar joylashgan. Bular shahar va qishloq tipidagi manzilgohlar (xaritada raqami: 4, 9, 11, 25, 29, 31), dehqon qal‘alari (2, 22, 26, 30), qabristonlar (7, 23, 24, 28) va sochma holdagi topilmajoylardan (32) iborat.

Shuningdek, Obishirsoy, Oqsuv, Kshtut, Toroti, Kuli-Zardarsoy, Gavyansoy, Uruu kabi soy va irmoqlar bo‘ylarida manzilgohlar (3, 6, 8, 10, 91) va qoyatosh suratlari (18), g‘or tipidagi yodgorliklar (14, 15, 17) aniqlangan. Bundan tashqari, mavsumiy kanallar va buloqlar bo‘ylarida ham turli davr va tipdagi yodgorliklar (1, 12, 13, 19, 21) joylashgan. Yodgorliklar turli davrlarga tegishliligiga ko‘ra quyidagicha ko‘rinish olgan: tosh davri – (13, 14, 15, 17); bronza-ilk temir – (12, 21); antik va ilk o‘rta asrlar – (1, 91); so‘nggi o‘rta asrlar – (19). O‘z navbatida 1, 13 – sochma tipdagi, 12, 21 – qoyatosh suratlari, 19 – g‘or tipidagi yodgorliklardan iborat.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi “**Antik davrda urbanizatsiya jarayonlari**” deb nomlanib, havzaning barcha qismlarida yangi manzilgohlarning paydo bo‘lishi, shaharlashuv jarayonining kuchayishi masalalari ko‘tariladi. Ushbu davrga oid yodgorliklar hududi va tiplariga ko‘ra tasniflanib, sug‘orish tizimlari bo‘ylab joylashishi aniqlangan.

Eramizdan avvalgi III asrning ikkinchi yarmi – II asr boshlarida butun Farg‘ona hududini migratsion jarayonlar qoplab oladi. Dastlab quyi Sirdaryoda bo‘ylarida yashovchi qabilalarning janub va janubiy-sharqqa, so‘ngra Sharqiy Turkistondan yuechji qabilalarining janub va janubiy-g‘arbiga tomon migratsiyasi yuz beradi<sup>57</sup>.

Eramizdan avvalgi II – eramizning V asrlarda butun O‘rta Osiyo, shu jumladan, Farg‘onada dehqonchilik madaniyati rivojlanishi va savdo aloqalarining kengayishi tufayli iqtisodiy o‘sish kuzatiladi. Mintaqaning daryo va soy havzalaridagi qo‘riq hamda bo‘z yerlar o‘zlashtirilishi, dehqonchilik madaniyati rivojlanishi va savdo yo‘llarining o‘sishi tufayli, urbanistik jarayonlar jadallashadi, manzilgohlar soni va hududi kengayadi<sup>58</sup>. Markazida shahardagi singari mahobatli turarjoyi bo‘lgan

